

Date: 7th May-2025

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA AXBOROT-TAHLIL FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Shodiyev Mehriddin Shoxobidinovich

Anotatsiya: Bugungi kunda axborot tizimi kundan-kunga rivojlanib bormoqda, bu esa jamiyat rivojlanishining asosiy tizimini tashkil etib, buning oqibatida inson hayotiga oid ko'plab masalalarining tezkorlik bilan qisqa va qulay vaqtida hal etilishiga imkoniyat tug'ilayotganligi, davlat boshqaruv tizimida o'ziga xos qulayliklar yaratilayotganligi maqtovga loyiq deyish mumkin, bunga aksi sifatida esa aytish mumkinki, jamiyatda axborot tizimidan foydalangan holda jamiyat va davlat boshqaruv tizimini izdan chiqarish, hamda insonlar hayoti va manfaatiga turli salbiy zararlar yetkazish ham shu axborot tizimidan foydalangan holda sodir etilayotganligini aytish mumkin. Ushbu maqolada shu yuqorida ta'kidlangan fikrlar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: axborot, dalil, voqeа, hodisa, predmet, jarayon, jinoyat ob'ekti, tizimini axborot bilan ta'minlash, ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish .

KIRISH

Kishilik jamiyatida axborotga bo'lgan talab hamisha yuqori bo'lgan va bu talab har doim oshib bormoqda. Ayniqsa taraqqiyotning hozirgi bosqichida axborotga bo'lgan ehtiyoj hayotiy ahamiyat kasb etib, mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarda o'zining yaqqol in'ikosini ko'rsatmoqda1.

Binobarin, inson hayoti uni o'rab turgan olamdan ma'lumot qabul qilish, qayta ishslash va jamiyatning boshqa a'zolari bilan axborot almashish bilan chambarchas bog'liq2.

Axborot insoniy omil yetib borgan barcha muhitlarda, xususan jamiyat va davlatni boshqaruv tizimida asosiy talab etiladigan resurslardan biri ekanligini isbotlashga hojat yo'q nazarimizda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi IIO boshqaruv tizimini ham axborotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har qanday boshqaruv jarayoni o'z o'rnila, ishonchli va to'liq axborotga ega bo'lishga zarurat sezadi3.

A.N. Gerasimenko IIO faoliyatini axborot bilan ta'minlashning: ijobiy tajribani tezkor almashish; IIOning rahbarlarining tahliliy sharhlari, buyruq, ko'rsatma va farmoyishlarini tayyorlash; huquqni muhofaza qilish faoliyatining alohida yo'naliishlari bo'yicha amaliyotni jamlash; fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishi faktlari haqidagi axborotni to'plash kabi bir qator shakllari mavjudligini ta'kidlaydi4.

Fikrimizcha, IIO (shu jumladan tayanch punktlari) faoliyatini axborot bilan ta'minlash boshqaruvni tashkiliy-metodik ta'minlashning funktsiyasi hisoblanmaydi. Boshqaruvga oid adabiyotlarda axborot bilan ta'minlash boshqaruvni ta'minlashning alohida yo'naliishlaridan biri sifatida o'rganiladi.

- 1 Аманов А.А. Ахборот хизмати қўрсатишни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солишини такомиллаштириш: Юрид. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дис.– Т., – 2018 – Б. 3.
2 Ўша манба – Б. 12.
3 Степанова Е.Е., Хмелевская Н.В. Информационное обеспечение управлеченческой деятельности: учебное пособие. – М.: Форум-Инфра-М, 2004. – С. 12.
4 Герасименко А.Н. Информационное обеспечение взаимодействия органов внутренних дел с общественными объединениями по охране правопорядка (организационные и правовые вопросы): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2008. – с.15.

Qolaversa, IIO boshqaruv tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ham IIO faoliyatini axborot bilan ta'minlashning alohida huquqiy va institutsional asoslari belgilab qo'yilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017 yil 23 maydagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining axborot-tahlil faoliyati va rejalashtirish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi buyrug'i bilan II Oda axborot-tahiliy faoliyat asoslari belgilangan bo'lsa, 2018 yil 7 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi IIV Tashkiliy departamenti faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 244-sonli buyrug'i bilan IIV sohaviy xizmatlari tahliliy bo'linmalari ro'yxati tasdiqlangan bo'lib mazkur bo'linmalar II Oning tegishli sohaviy xizmatlarini tahliliy axborot bilan ta'minlaydi.

ASOSIY QISM

II Oning amaliy faoliyatini o'rganish II Oning boshqaruv tizimini kompleks tahliliy axborotlar bilan ta'minlash, voqeа, hodisa va jarayonlar hamda faktlar o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni quyidagi shakllar asosida amalga oshirilishini ko'rsatmoqda: joriy tahlil – sutka, hafta, oy natijalari bo'yicha operativ boshqaruvning kundalik ehtiyojlarini, IIO shaxsiy tarkibining kundalik faoliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning asosida muayyan huquqbazarlik va jinoyatlarga ta'sir ko'rsatish choralar ko'rildi, kuch va vositalarni joy-joyiga qo'yish uchun zarur qo'shimchalar kiritiladi, boshqa turdag'i boshqaruv tadbirlari amalga oshiriladi; davriy tahlil – chorak, yarim yil, to'qqiz oy va yil yakuni natijalari bo'yicha huquqbazarlik va jinoyatlar dinamikasini aniqlash, II Oning tezkorxizmat faoliyati hamda yo'l qo'yilgan kamchilik va muammolarning sabablarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosida keyingi davrda tezkor-xizmat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlanadi va buning asosida amaliy-tashkiliy chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqiladi; istiqbolli tahlil – bir yildan ortiq davr natijalari bo'yicha xizmat hududiga xos bo'lgan jinoyatlarning sabablarini aniqlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatidagi tizimli muammolarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosida tezkor-xizmat faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks va maqsadli dasturlari ishlab chiqiladi;

Date: 7th May-2025

navbatdan tashqari tahlil – tezkor vaziyatning keskin o'zgargan sharoitida, bir nechta oy yakunlari bo'yicha yoxud hay'at majlisi, yig'ilish va boshqa tashkiliy tadbirlarni o'tkazish zarurati yuzaga kelgan sharoitda amalga oshiriladi;

muammoli tahlil – tezkor-xizmat faoliyatining alohida muammolari va masalalarini, jumladan, jinoyat turlarining past darajada fosh etilishi, jamoat joylardagi, retsidiy yoki o'smirlarning jinoyatchiligi oshib ketishi, muayyan turdag'i jinoiy tajovuzlar soni yohud giyohvand vositalar bilan bog'liq va o'q otar qurollarni qo'lllash yo'li bilan sodir etilgan jinoyatlarning o'sishini tahlil qilinishidan iborat; qiyosiy tahlil – bir xil sharoitda faoliyat qo'rsatib kelayotgan ikki va undan ortiq IIO tezkor-xizmat faoliyatidagi muammolar sabablarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fikrimizcha, kompleks tahlili natijasida taylorlanadigan axborot tahliliy hujjatlarda qo'yidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topishi lozim: kriminogen vaziyatning qisqacha tavsifi (jinoyatchilik, retsidiy va yoshlarning jinoyatchiligi, ma'muriy huquqbazarliklar, narkomaniya holati va boshqalar);

tezkor-xizmat faoliyati natijalari, kamchilik va muammolari, ularning kelib chiqish sabablari;

tezkor-qidiruv faoliyatining muayyan yo'naliishidagi natijalari; ko'zga ko'ringan yutuqlar va ularga ko'mak beruvchi omillar (boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, kadrlarni sifat nuqtai nazaridan mustahkamlash, qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish, ijobiy tajribalaridan foydalanish, samarali intizomiy amaliyot va boshqalar), faoliyat natijalariga ko'ra namunali ichki ishlar bo'linmalari; tezkor-xizmat faoliyatidagi kamchiliklar, shuningdek, xizmat ko'rsatkichlari past bo'lgan IIO, yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablari va bunga aybdor bo'lgan mansabdar shaxslar;

kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar hamda ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlari loyihalari.

Bu esa o'z navbatida axborot tahliliy ma'lumotlardan IIOni boshqarishda maqsadli foydalanishga imkon beradi.

Tahlillar IIOning boshqaruv tizimini ta'minlashga qaratilgan axborotlarga nisbatan aniq talablar mavjud emasligini ko'rsatmoqda. CHunonchi, har qanday yetkazilayotgan xabar yoki ma'lumot hamisha axborotga xos bo'lgan jihatlarni to'liq aks ettirmasligi mumkin. SHu sababli axborot sifatida yetkazilayotgan xabar yoki ma'lumotga qo'yiladigan talab va mezonlarga e'tiborni qaratish muhim hisoblanadi

Date: 7th May-2025

XULOSA

Axborotlarning to'g'riliqi tekshirish va saralashda mavjud axborotga boshqa manbalar orqali tekshirilib tasdiqlanishi, inkor etilishi yoki qisman o'zgartirilishi amalgalashiriladi hamda foydalanish yo'nalishlaridan kelib chiqib tizimlashtiriladi.

Tekshirilgan va saralanib tizimlashtirilgan axborotda ifodalangan ma'lumotlar turli mezonlar asosida «intellectual ishlovdan» o'tkaziladi. Bunda axborot boshqaruv maqsadiga mos shakl va mazmunga keltiriladi. Bunda axborotlar tahliliy axborotga aylantiriladi.

Tahliliy axborotlar belgilangan shaklda hujjatlashtirilib boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi.

Shunday qilib, IIO boshqaruv tizimini axborot bilan ta'minlash IIO boshqaruv strategiyasining tarkibiy qismi bo'lib, uning qay darajada tashkil etilishi axborot bilan ta'minlanishining sifat va miqdor ko'rsatkichlariga bog'liq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. SH.MM. Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza, 2018 yil yil 7 dekabr.
2. SH.M. Mirziyaev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yinturug'icha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylikni ta'minlashga doir masalalar" – 2019 yil yil 18 yanvar.
4. Amanov A.A. Ahborot hizmati qursatishni fukarlik-hukukyi tartibga solishniy takomillashtirish: Yurid. fan. buy. fals. doc. (phd) dis.– T., – 2018 – B. 3.
5. Yuldashev, J. (2023). Qo'shma to'xtash kompaniyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish O'zbekiston. Eurasian Research Bulletin, 16, 114-118.
6. Stepanova E.E., Xmelevskaya N.V. Axborotni qo'llab-quvvatlash boshqaruv faoliyati: darslik. – M.: Forum-Infra-M, 2004. – BILAN. 12.
7. Gerasimenko A.N. Organlarning o'zaro ta'sirini axborot bilan ta'minlash huquqni muhofaza qilish organlari jamoat birlashmalari bilan ichki ishlar (tashkiliy-huquqiy masalalar): Mualliflik huquqi. dis. ... cand. yuridik fanlar – M., 2008. – 15-bet.
8. Gulyamov, S., & Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA. Oriental uyg'onish: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 2(5), 1029-1041.
9. Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLARI TO'G'G'RISIDAGI KONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALARI. Oriental uyg'onish davri: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 2(6), 893-902.